

Mehnat majburiyatlarini bajarmaslik uchun jarima solish noqonuniy!

Sababini tishuntirmasdan **ishdan bo'shatish** ta'qiqlanadi (st. 76 TK RF). Xodimni ishdan bo'shatish paytida unga albatta ishdan bo'shatish haqidagi buyruqni berishlari va ishdan bo'shatish haqida yozilgan mehnat daftar-chasini qaytarishlari zarur. Ish beruvchi xodimga u ishlagan vaqtdagi yoki bajarilgan ish uchun ish haqini to'lashi zarur, hatto ular orasida shartnoma tuzilmagan bo'lsa ham (st. 67.1 TK RF).

Agar sizga ish haqi berishni kechiktirishsa, tavsiya etamiz:

- ish haqi berishni 15 kundan kop muddatga kechiktirish holatida, siz ch.2 st.142 TK RF ga muvofiq ish beruvchiga ish haqi to'lanmaganligi bois ishni to'xtatish borasida yozma shikoyat berish huquqiga egasiz;
- Ish beruvchiga st. 62 TK RF tartibida ishga oid hujjatlar, shu jumladan, hisob-kitob vadaqalari nusxasini berish haqida yozma ariza bilan murojaat etishga;
- agar siz 3 ish kuni davomida hujjatlar nusxasini olmasangiz, unda ish beruvchi ustidan Государственную инспекцию труда ga shikoyat yozing;
- ish beruvchiga ish haqidan qarzlarni bermayotganlikka oid shikoyat bilan murojaat eting. Shikoyat kollektiv bo'lishi mumkin. Shikoyat ko'rilayotgan paytda ish beruvchining sizni ishdan bo'shatishga haqi yo'q.

Буклет «Трудоустройство и защита трудовых прав. Советы трудовым мигрантам» (на узбекском языке)

Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»

Авторы-составители: Хлызова Д.В., Якимов А.Н.

Редактор: Панич Б.Л.

Тираж 2000 экз.

Изготовлено в рамках проекта «Школа мигранта. Добро пожаловать в Ленинградскую область!» Комитета по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области.

Shikoyat berilayotgan paytda sizning qo'lingizda ish beruvchining shikoyat olingan sana haqidagi imzosi yoki muhri bosilgan nusxasi qolishi muhimdir.

Adar ish beruvchi sizning shikoyatingizga javob bermasa, prokuratura uo sudga shikoyat bilan murojaat etish zarur.

Kollektiv murojaat va shikoyatlar bir kishinikiga qaraganda samaraliroq bo'ladi. Mehnat muhojirlari huquqlarining ommaviy busilishi haqida ish beruvchi joylashgan erdagi davlat maqomatlari va mahalliy hukumatlarga xabar berish zarur.

CHET ELLIK STUDENTLARING ISHLASHI

Kunduzgi ta'limda o'qiydigan chet ellik talabalar o'qish paytidan bo'sh vaqtlarida patent va ishlash uchun ijozat olmasdan ishlay olishlari mumkin. Mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzish uchun ularning oliy o'quv yurti yo kollejdan mazkur mintaqada o'qishlarini tasdiqlovchi ma'lumotnoma ko'rsatishlari talab etiladi.

MEHNAT HUQUQLARINI HIMOYA QILISH UCHUN QAERGA MUROJAAT ETMOQ ZARUR

Государственная инспекция труда в Ленинградской области:
8 (812) 612-70-34, git47.rostrud.gov.ru

Прокуратура Ленинградской области:
8 (812) 429-77-55, epp.genproc.gov.ru

Главное Следственное Управление Следственного комитета России по Ленинградской области (mehnatga majbur ertish va ish haqi to'lanmagan hollarda):
8 (812) 630-39-12, 8 (812) 630-39-13,
8 (800) 200-97-80
lenobl.sledcom.ru

Уполномоченный по правам человека в Ленинградской области:
8 (812) 296-60-13, ombudsman47.ru

Bepul huquqiy yordam

«ПСП-фонд» xayriya jamg'armasi:

8 (812) 337-57-85, 8 (953) 141-31-09, psp-f.org, vk.com/pspfond

Muhojirlar uchun davlat qo'llovi va xizmatlari

Комитет по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области:
sayt: msu.lenobl.ru
tel.: 8 (812) 539-52-33

Управление по вопросам миграции ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области:
sayt: 78.mvd.ru/ms
tel. 8 (812) 573-37-22, 8 (812) 573-30-02

Паспортно-визовый сервис МВД России, филиал по Санкт-Петербургу и Ленинградской области:
sayt: spb.pvsmvd.ru
tel.: 8 (812) 318-01-22

Многофункциональный центр предоставления государственных и муниципальных услуг (МФЦ) Ленинградской области:
sayt: mfc47.ru
tel.: 8 (800) 500-00-47

Foydali ma'lumotlar

migrantlenobl – Комитета по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области ning Mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari uchun «Dobro pojalovat v Leningradskuyu oblast!» mobil ilovasi va sayti

migrussia.ru – Migrasuya i migranti» (muhojirlar va ular bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun axborot portali - moslashuv va huquqiy qo'llovga oid bir necha tildagi maslahatlar, axborot materialari, davlat va ijtimoiy tashkilotlarning foydali muloqot qilish vositalari)



КОМИТЕТ ПО МЕСТНОМУ САМОУПРАВЛЕНИЮ, МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫМ И МЕЖКОНФЕССИОНАЛЬНЫМ ОТНОШЕНИЯМ ЛЕНИНГРАДСКОЙ ОБЛАСТИ



migrantlenobl

Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!

MEHNAT MUHOJIRLARIGA MASLAHATLAR

Ishga joylashish va mehnat huquqlari himoyasi

Rossiyada noqonuniy ishlash – jiddiy huquqbushdir. O‘z huquqlaringiz va burchlaringizni bilishingiz muhim va o‘zingizni keraksiz tashvishlardan saqlay oling.

ISHLASH UCHUN PATENT

Agar siz Ozarboyjon, Moldova, Tojikiston, Ozbekiston yo Ukrainadan kelgan bo‘lsangiz, qonuniy ishga joylashish uchun **ishlash uchun patent olishingiz zarur.**

EOIH mamlakatlari (Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston) fuqarolariga **patent olish talab qilinmaydi.** Ularning RF hududida vaqtincha bo‘lishlari muddatini uzaytirish uchun mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnomasi asos bo‘ladi!

Patent rasmiylashtirish uchun hujjatlar topshirish muddati – Rossiyaga kelgandan so‘ng 30 kun davomida. Bu muddat buzilgan holatda Sizga 10000 dan 15000 rublgacha **jarima** to‘lashga to‘g‘ri keladi. Patentda ko‘rsatilgan ixtisosdan boshqa ishda ishlaganlik uchun jarima solishlari mumkin – 4000 dan 7000 rublgacha.

Patent faqat u olingan mintaqada ishlash huquqini beradi.

Rossiyada faqat 18 yoshga to‘lganlarga ishlashlari va patent olishlari mumkin!

Har bir mintaqada patent rasmiylashtirish uchun hujjat qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan yagona tashkilot bor: **Leningrad viloyatida, bu ФГУП «Паспортно-визовый сервис» МВД России spb.pvsmvd.ru**

Ishlash uchun patentni rasmiylashtirish muddati– 10 ish kuni. Olingan patent asosida muhojirlik qaydi (registrasiya)ni uzaytirish zarur.

Patent bo‘yicha ishlash uchun siz navbatdagi har bir ish oyi uchun **qaydga olingan soliq to‘lovi** (NDFL) to‘lashingiz zarur. To‘lov vaqtida to‘lanmagan holatda patentning amal qilishi muddatini kechiktirishning birinchi kundan toxtatiladi.

Oy hisobi hujjatda ko‘rsatilgan patent olingan sanadan boshlanadi!

To‘lov tolangan ish oyi tugashiga 1 kun qolishidan kechiktirmasdan amalga oshiriladi (uni har oy va bir necha oy oldinga ham to‘lash mumkin).

Patent uchun to‘lovga qilgan to‘lovlaringizni tasdiqlovchi rekvizitlar va cheklarni albatta o‘zingizda saqlang!

Diqqat: patent olganingizdan so‘ng 2 oy orasida siz УВМ МВД РФ по Санкт-Петербургу и Ленинградской области ga mehnat shartnomasining nusxasini buyurtma xat bilan topshirilganiga oid bildiruvni qo‘shib yuborishingiz yo shartnomani shaxsan olib borishingiz zarur; yo‘qsa, sizning patentingizni haqiqiy emas deb hisoblashlari mumkin!

Patentning amal qilish muddati tugagach Rossiyadan chiqib ketish yoki patentning amal qilish muddati tugashiga **10 ish kundan** kechiktirmasdan УВМ МВД РФ ning muhojirlik masalalari bo‘yicha bo‘linmalarida patentni qayta rasmiylashtirish zarur.

Ishlash uchun patentni bir necha martadan qayta rasmiylashtirish mumkin.

Siz patent rasmiylashtirish, uni olish tartibi va muddatini uzaytirish uchun qanday hujjatlar zarurligi haqida УВМ ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области ning rasmiy saytidan bilib olishingiz mumkin – 78.мвд.рф/ms

ISHGA JOYLASHISH, MEHNAT HUQUQLARI

Ish izlagan paytingizda Sizga umumrossiya bo‘sh o‘rinlar «Работа в России» bazasidan foydalanishingizni: trudvsem.ru yoki Центр занятости населения Ленинградской области ga murojaat etishingizni maslahat beramiz: www.czn47.ru

Ish beruvchining o‘zi va ish shart-sharoitlari sizga noma‘lum bo‘lganda vositachilar orqali ishga joylashmang! Vositachilar ko‘pincha aldashadi!

Sizda rasmiy ravishda ishga joylashish uchun bolishi zarur:

- ◆ amaldagi chet el pasporti, notarial jihatdan tasdiqlangan rus tilidagi tarjimasi bilan
- ◆ mehnat daftarchasi (agar sizda mehnat daftarchasi bo‘lmagan holatda uni ish beruvchi yuritadi)

- ◆ ИИИ (soliq to‘lovchining identifikatsiyalashgan raqami)
- ◆ СНИЛС
- ◆ amaldagi ishlash uchun patent
- ◆ amaldagi ixtiyoriy tibbiy sug‘urta polisi (ДМС).
- ◆ o‘rta maxsus yoki oliy kasbiy ta‘lim borasidagi diplom– malakali vazifalarga ishga joylashayotganda.

Rossiyada 135 ta malakali mutaxassislar kasblaridan iborat ro‘yxat mavjud, ular RFda 1 yillikdan ko‘p rasmiy ish stajiga ega bo‘lganlaridan s‘ong soddalashtirilgan tartibda Rossiya fuqaroligini olishlari mumkin. Kasblar ro‘yxati bilan mazkur saytda mufassal tanishish mumkin: www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/73476436/

Qonuniy ishlang: barcha zarur hujjatlarnu davlat muassasalarida rasmiylashtiring. RF da ishga rasmiy joylashish uchun ish beruvchi bilan quyidagilarni tuzmoq zarur:

- ◆ mehnat shartnomasi – ish beruvchining ish joyida uzoq mudatda doimiy ishlashi holatida, yoki
- ◆ xizmat ko‘rsatish shartnomasi yoki pudrat shartnomasi – vaqtincha ishlash holatida, chegaralangan vaqt davomida pudrat asosida aniq cheklangan ish hajmi bajarilganda.

Ish beruvchi siz bilan shartnoma tuzishi va uning imzolangan nusxasini sizga berishi, shuningdek unda mehnat shartnomasi asosida 5 kundan ko‘p vaqt mobaynida ishlayotgan xodimga mehnat daftarchasi rasmiylashtirishi SHART. Ishga qabul ish beruvchining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi (siz buyruq nusxasini olishga haqlisiz). Ishga oid mehnat shartnomalari va boshqa hujjatlar namunalari bilan mazkur saytda tanisha olasiz: onlayninspeksiya.rf/documents

Ish beruvchingizni biling: tashkilotning nomi va manzilini, rahbaringizning aloqa vositalarini (vazifasi, familiyasi, ismi, telefoni). Bu ma‘lumotlar Sizga agar o‘z huquqlaringizni himoya qilishga to‘g‘ri kelsa va ish haqingizni olishga erishishingiz uchun qo‘l keladi.

Vositachilarga murojaat etmang: ular Sizga qalbaki hujjatlar rasmiylashtirishlari va tekin ishchi sifatida foydalanishlari mumkin. **Rossiyada yollanma mehnat (ish beruvchining o‘z xodimlarini mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan turib boshqa tashkilotlarda jo‘natishi) ta‘qiqlanadi!**

Ish haqi miqdori va uni to‘lash shartlarini aniq gaplashib oling: Siz qancha va aynan qaysi ish uchun to‘lashlarini bilmog‘ingiz zarur. Maosh miqdori mehnat shartnomasida ko‘rsatilishi zarur. Siz pulni yo o‘z nomingizdagi maxsus bank kartasida, yoki shaxsan buxgalteriyada hisob-kitob varaqasiga imzo chekib olishingiz zarur. Har qanday pullik munosabatlar hujjat bilan tasdiqlanishi zarur.

Imzolayotgan har bir narsani diqqat bilan o‘qing, Sizga uning nusxasini berishni talab qiling. Agar siz shartnomalar, bildiruvlar va boshqa hujjatlarining mazmuni va shart-sharoitlariga rozi bo‘lmasangiz, ularni imzolamaslik huquqiga egasiz!

Ish beruvchiga hujjatlaringsini saqlash uchun bermang: Sizdan boshqa hech kimning Sizning hujjatlaringsizni olib qo‘yishiga, shuningdek Sizning erkin harakatingizni cheklashiga, telefoningiz va hokazolarni tortib olishiga huquqi yo‘q. Pasportni olib qo‘yish va erkinlikni cheklash – jiddiy jinoyat: bunday holda polisiyaga murojaat etish zarur!

Diqqat qiling: Xodim va ish beruvchining huquq va burchlari Трудовом кодексе РФ (TK РФ) da yozilgan.

Ish beruvchi mehnat xavfsizligi sohasiga oid qonunchilikka rioya etishga majbur– agar **ishingizdagi mehnat sharoitlari** hayot va salomatlik uchun xavfli bo‘lsa, tezda ishni to‘xtatish va Следственный комитетga shikoyat qiling.

Ish kuni uzunligi 8 soatdan, ish haftasiniqi – 40 soatdan oshmasligi zarur. Ish vaqtidan ortiqcha mehnat uchun qo‘shimcha haq beriladi (TK РФ ning 152 m., 153 m. va 154 m.siga muvofiq).

Agar xodim o‘z mehnat majburiyatlarini bajar-masa, ish beruvchi yozma ogohlantirish, hayfsan berishi yoki belgilangan tartibda (ct. 192 TK РФ) ishdan boshatishi mumkin.